


## XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2024- yil yanvar-iyun oylarida kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga ishga joylashtirishda yordam berishni soʻrab 42 932 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi shahrida (4 034 kishi), Koson (3 511 kishi), Qarshi (3 499 kishi), Gʻuzor (3 383 kishi), Kitob (3 142 kishi), Shahrisabz (2 935 kishi), Qamashi (2 493 kishi), Koʻkdala (2 392 kishi), Chiroqchi (2 377 kishi), Yakkabogʻ (2 281 kishi), Nishon (2 260 kishi) tumanlariga toʻgʻri keladi.

Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga murojaat qilgan fuqarolardan 23 378 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu koʻrsatkich, Qarshi shahrida (1 795 kishi), Koson (2 225 kishi), Kitob (2 064 kishi), Shahrisabz (1 797 kishi), Gʻuzor (1 718 kishi), Dehqonobod (1 547 kishi), Kasbi (1 510 kishi) tumanlarida yuqori darajada boʻldi. Oʻtgan davr mobaynida bandlikka koʻmaklashuvchi markazlarida roʻyxatga olingan fuqarolardan 936 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka koʻmaklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

### Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)



**Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga  
ish qidirib murojaat etgan va roʻyxatga olinganlar soni**  
(2024- yil 1- iyul holatiga, kishi)

	<i>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i>		<i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i>		<i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i>	
	<i>2023- yil yanvar- iyun</i>	<i>2024- yil yanvar- iyun</i>	<i>2023- yil yanvar- iyun</i>	<i>2024- yil yanvar- iyun</i>	<i>2023- yil yanvar- iyun</i>	<i>2024- yil yanvar- iyun</i>

<b>Viloyat boʻyicha:</b>	<b>33 657</b>	<b>42 932</b>	<b>2 000</b>	<b>936</b>	<b>2 000</b>	<b>936</b>
--------------------------	---------------	---------------	--------------	------------	--------------	------------

shaharlar:

Qarshi	2 858	4 034	78	23	78	23
--------	-------	-------	----	----	----	----

Shahrisabz	1 450	1 805	149	71	149	71
------------	-------	-------	-----	----	-----	----

tumanlar:

Gʻuzor	3 323	3 383	120	197	120	197
--------	-------	-------	-----	-----	-----	-----

Dehqonobod	1 854	2 655	141	32	141	32
------------	-------	-------	-----	----	-----	----

Qamashi	2 590	2 493	107	34	107	34
---------	-------	-------	-----	----	-----	----

Qarshi	2 070	3 499	56	28	56	28
--------	-------	-------	----	----	----	----

Koson	2 852	3 511	297	51	297	51
-------	-------	-------	-----	----	-----	----

Kitob	2137	3142	43	81	43	81
-------	------	------	----	----	----	----

Mirishkor	1 506	1 625	237	82	237	82
-----------	-------	-------	-----	----	-----	----

Muborak	1 386	1 839	41	31	41	31
---------	-------	-------	----	----	----	----

Nishon	2 066	2 260	189	14	189	14
--------	-------	-------	-----	----	-----	----

Kasbi	1 634	2 701	83	39	83	39
-------	-------	-------	----	----	----	----

Koʻkdala	1 315	2 392	81	37	81	37
----------	-------	-------	----	----	----	----


Chiroqchi	1 888	2 377	81	48	81	48
-----------	-------	-------	----	----	----	----

Shahrisabz	2 453	2 935	184	117	184	117
------------	-------	-------	-----	-----	-----	-----

Yakkabogʻ	2 275	2 281	113	51	113	51
-----------	-------	-------	-----	----	-----	----



**Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'aklashish bo'limlariga  
ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi**  
(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



*Izoh: 2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilib kelganlardan ro'yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahri, Koson, Qarshi, G'uzor, Kitob, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida yuqori bo'lgan.*


### Ish bilan ta'minlangan aholi soni<sup>1)</sup>

	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>16 506</b>	<b>23 378</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	1 455	1 795
Shahrisabz	550	948
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1 581	1 718
Dehqonobod	735	1 547
Qamashi	1 507	1 122
Qarshi	945	1 451
Koson	1 573	2 225
Kitob	1 250	2 064
Mirishkor	553	779
Muborak	603	1 162
Nishon	1012	1 062
Kasbi	770	1 510
Ko'kdala	683	1 486
Chiroqchi	1 018	1 409
Shahrisabz	1 338	1 797
Yakkabog'	933	1 303

<sup>1)</sup> Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida



### Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi (jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



**Izoh:** Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Qarshi shahrida, Koson, Kitob, Shahrizabz, G'uzor, Dehqonobod, Kasbi tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

## O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 634,4 ming so'mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Qarshi shahrida 5 047,6 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 138,9 %), Muborak tumanida 4 627,9 ming so'm (127,3 %) , Nishon tumanida 4 453,6 ming so'm (122,5 %) va G'uzor tumanida 3 955,8 ming so'm (108,8 %) ni tashkil etgan.

### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad

(2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>238 873</b>	<b>5 208,9</b>	<b>3 634,4</b>
shu jumladan:			
Sanoat	26 793	941,4	5 856,2
Qurilish	4 555	120,6	4 413,2
Savdo	2 002	43,2	3 595,4
Tashish va saqlash	6 069	234,1	6 428,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	122	1,9	2 527,7
Axborot va aloqa	744	38,8	8 698,8
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	1 882	134,4	11 905,8
Ta'lim	114 420	2 002,4	2 916,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish	50 831	790,0	2 590,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2 248	60,2	4 463,8
Boshqa faoliyat turlari	29 207	793,0	4 525,0

## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 634,4 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga o'sgan.

O'rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilikda 11 905,8 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,3 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 8 698,8 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,4 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 6 428,1 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 76,9 % ga yuqori), Sanoat sohasida 5 856,2 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 61,1 % ga yuqori), hamda Qurilish sohasida 4 413,2 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 21,4 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.




**Qashqadaryo viloyati bo'yicha**  
**o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik*  
*subyektlaridan tashqari, ming so'm)*

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3 199,7</b>	<b>3 634,4</b>	<b>113,6</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	4 298,1	5 047,6	117,4
Shahrisabz sh.	2 671,1	3 420,3	128,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	3 650,3	3 955,8	108,4
Dehqonobod	3 278,3	3 372,2	102,9
Qamashi	2 305,8	2 626,2	113,9
Qarshi	2 476,9	2 808,0	113,4
Koson	2 483,6	3 023,1	121,7
Kitob	2 462,5	2 743,4	111,4
Mirishkor	2 663,0	2 793,5	104,9
Muborak	3 962,1	4 627,9	116,8
Nishon	4 161,9	4 453,6	107,0
Kasbi	2 576,5	2 852,1	110,7
Ko'kdala	2 385,8	2 834,7	118,8
Chiroqchi	2 763,5	2 866,4	103,7
Shahrisabz	2 417,7	2 764,4	114,3
Yakkabog'	2 390,0	2 622,3	109,7


**Ish haqi.** 2024- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

**Ta'lim sohasida** 1 876 ta muassasada 114 420 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2 002,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 38,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 916,8 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,6 % ga o'sgan.

**Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha**  
**o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*



**Hududlar**




■ ming so'm



**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turida 45 ta korxonada 26 793 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,2 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 941,4 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 18,1 %) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 856,2 ming so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga o‘sgan.

### Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 11 480,8 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,2 barobarga yuqori), Muborak tumanida 8 224,6 ming so‘mni (2,3 barobarga yuqori), G‘uzor tumanida 7 092,0 ming so‘mni (95,1% ga yuqori), Dehqonobod tumanida 7 189,8 ming so‘mni (97,8 % ga yuqori) tashkil etgan bo‘lsa, Qarshi tumanida 2 771,8 ming so‘mni (76,3 %), Qamashi tumanida 2 968,6 ming so‘mni (81,7 %), Shahrisabz shahrida 2 205,8 ming so‘mni (60,7 %) hamda Kitob tumanida 2 558,6 ming so‘mni (70,4 %)ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** sohasida 95 ta muassasada 50 831 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,3 %) xodim ishlagan bo'lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 790,0 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15, %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 590,2 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 15,3 % ga o'sgan.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'mda)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida 2 974,6 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 81,8 %)ni tashkil etgan bo'lsa, Nishon tumanida 1 728,3 ming so'mni (47,6 %) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**San'at, ko'ngil ochish va dam olish** iqtisodiy faoliyat turida 48 ta muassasada 2 248 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 60,2 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,2 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 463,8 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 21,6 % ga o'sgan.


**San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari,  
ming so'mda)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 6 110,8 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 168,1 %), Qarshi shahrida 5 422,5 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 149,2 %) ekanligi kuzatildi.

## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va  
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)



ming so'm



**Sanoat**  
5856,2



**Bank, sug'urta, lizing,  
kredit va vositachilik**  
11 905,8



**Qurilish**  
4 413,2



**Ta'lim**  
2 916,8



**Savdo**  
3 595,4



**Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmatlar  
ko'rsatish**  
2 590,2



**Tashish va saqlash**  
6 428,1



**San'at, ko'ngil ochish  
va dam olish**  
4 463,8



**Axborot va aloqa**  
8 698,8



**Boshqa iqtisodiy  
faoliyat turlari**  
4 525,0